

6 aprel 2025 yil.214/01-40-son

“ T A S D I Q L A Y M A N ”

Zarafshon shahar hokimi
o‘rinbosari



S. Uvaytov

Zarafshon shahar tibbiyot birlashmasida o‘tkazilgan yig‘ilish
BAYONI

2025-yil 28-mart

Zarafshon shahri

Rais: S. Uvaytov – shahar hokimi o‘rinbosari

Taklif etildi: O. Nosirov –shahar adliya bo‘limi boshlig‘i,
Sh. Ne‘matov – shahar hokimligi bosh mutaxassisi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul

Qatnashdilar: shahar tibbiyot birlashmasining bosh shifokor o‘rinbosarlari (davolash ishlari bo‘yicha, iqtisodiy masalalar bo‘yicha va h.k.), bo‘lim mudirlari, bosh hamshira va hamshiralari (ro‘yxat bo‘yicha)

K U N T A R T I B I

Tibbiyot xodimlarining kasbiy mas’uliyati, bemorlar ishonchini mustahkamlash, tibbiy xizmatlar sifati, korrupsiyaga qarshi kurashish va tibbiyot tizimida etik me’yorlarga rioya etish bo‘yicha chora-tadbirlar muhokamasi to‘g‘risida

(Uvaytov, Ne‘matov, Baxronov, Hasanov, Toshboyev,

Yig'ilish Zarafshon shahar tibbiyot birlashmasining majlislar zalida bo'lib o'tdi. Unda tibbiyot birlashmasi rahbariyati, muassasa xodimlari, shuningdek, shahar hokimligi va tegishli tashkilot vakillari ishtirok etdilar.

Yig'ilishni tibbiyot birlashmasi rahbari o'rinbosari ochib berdi va kun tartibi ishtirokchilarga e'lon qilindi. Kun tartibidagi asosiy masalalardan biri — tibbiyot xodimlarining mas'uliyatini oshirish va bemorlarning tibbiyot tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash muhimligi haqida to'xtalib o'tildi.

Birinchi bo'lib, so'zga chiqqan shahar tibbiyot birlashmasi rahbari o'rinbosari, shifokorlik kasbi yuksak mas'uliyat talab qilishi, bemorlar bilan muomala qilishda halollik, mehribonlik va kasbiy etikaga qat'iy amal qilish zarurligini ta'kidladi. Har bir bemorning sog'ligi va hayoti – shifokor va hamshiralar zimmasidagi mas'uliyat ekanligi qayd etildi. Shuningdek, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirib borish, zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi davolash sifatini belgilovchi muhim omil sifatida e'tirof etildi.

Yig'ilish doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 5-mart kuni bo'lib o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Shu munosabat bilan Zarafshon shahar tibbiyot birlashmasida o'quv-seminar tashkil etildi.

Seminarda shahar hokimi o'rinbosari –S.Uvaytov, shahar hokimligi bosh mutaxassisi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul – Sh.Ne'matov so'zga chiqib, quyidagi mavzularda ma'ruzalar qilishdi:

tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish yo'llari;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” va undan kelib chiqadigan vazifalar;

tibbiyot muassasalarida “Odob-axloq qoidolari” va xizmat madaniyati;

“Manfaatlar to'qnashuvi” va unga oid qonunchilik talablari.

Tadbir davomida, ayrim bemorlar tomonidan bildirilgan shikoyatlar, xususan, qo'shimcha to'lovlar talab qilinayotgan holatlar tanqidiy muhokama qilindi. Bu kabi holatlar aholining tibbiyot tizimiga bo'lgan ishonchini susaytirishi, davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlarga putur yetkazishi mumkinligi alohida qayd etildi.

Shuningdek, tibbiyot xodimlariga davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, ya'ni oylik ish haqlarining oshirilishi, tibbiy muassasalarning

modernizatsiya qilinishi, zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanishi va malaka oshirish dasturlari haqida batafsil axborot berildi.

Yig'ilish ishtirokchilari mazkur masalalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, taklif va mulohazalarini bildirdilar. Xodimlar o'rtasida ushbu masalalarga nisbatan ijobiy kayfiyat, yuksak mas'uliyat hissi kuzatildi.

Tadbir yakunida, bu kabi muammolarni bartaraf etish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, aholining ishonchini mustahkamlash yo'lida birgalikda harakat qilish bo'yicha qat'iy qarorlar qabul qilindi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli rahbar va mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar inobatga olinib, yig'ilishda

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tibbiyot xodimlarining kasbiy mas'uliyatini oshirish, bemorlar bilan muloqotda halollik, hurmat va insonparvarlik tamoyillariga qat'iy amal qilish –tibbiyot muassasasi rahbari va xodimlarining asosiy vazifasi etib belgilansin.

2. Tibbiy xizmatlar sifati va bemorlarning ishonchini mustahkamlash maqsadida shahar tibbiyot birlashmasida xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish bo'yicha amaliy choralar belgilansin.

3. Tibbiyot birlashmasidakorrupsiyaviy holatlarning oldini olish, bemorlardan noqonuniy ravishda mablag' talab qilish, "ko'ngildan chiqarib bering" kabi iboralardan foydalanish qat'iy man etilsin.

Bunday holatlar bo'yicha aniqlangan xatti-harakatlarga nisbatan qonuniy chora ko'rilishi belgilab qo'yilsin.

4. Tibbiyot xodimlari o'rtasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Odob-axloq qoidalari" va "Manfaatlar to'qnashuvi" mavzularida doimiy ravishda o'quv-seminarlar o'tkazilishi tavsiya etilsin.

5. Bemorlarning shikoyatlari va murojaatlari bo'yicha doimiy monitoring olib borish, mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilsin.

6. Tibbiyot birlashmasida xodimlarning malakasini oshirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni o'zlashtirish bo'yicha seminar, trening va ichki o'quv mashg'ulotlari tizimli ravishda tashkil etilsin.

7. Davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlardan samarali foydalanish, xususan, zamonaviy jihozlar, yangi dasturlar, oshirilgan ish haqlari orqali tibbiy xizmatlar sifatini oshirish – har bir xodimning kundalik faoliyatiga singdirilishi lozimligi eslatib o'tilsin.

8. Shahar tibbiyot birlashmasi (Karamatov) – belgilangan vazifalar ijrosini doimiy nazoratga olish, ularning amalga oshirilishi yuzasidan tegishli tahlillar asosida hisobot tayyorlab borish topshirildi.

9. Ushbu yig'ilish bayoni qarorining ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayonnomani rasmiylashtirdi



Sh. Ne'matov